

KREDIT MAHSULOTI PASPORTI

Kredit maxsulotining turi va nomi	Avtokredit – Comfortable
Qarz oluvchi qo'yiladigan talablar	O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan, 18 yoshga to'lgan, shuningdek ish haqi ko'rinishidagi oylik rasmiy daromadiga ega bo'lgan jismoniy shaxs yoki o'zini o'zi band qilgan shaxslar.
Kredit valyutasi	O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi - so'm
Kredit miqdori	Avtotransport vositasini yetkazib berish shartnomasida belgilangan, kredit hisobiga sotib olinayotgan avtotransport vositasi narxining 75% miqdorigacha ajratilishi mumkin.
Kredit maqsadi	O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan KIA, CHERY va LADA ning barcha modellari hamda xorijiy davlatlarda ishlab chiqarilgan barcha turdagi avtotransport vositalarini sotib olish uchun.
Kredit muddati	60 oymuddatga, 6 oy imtiyozli davr berilishi mumkin
Foiz stavkasi	Boshlang'ich to'lov 40% gacha bo'lganda: 36 oy muddatga – 28% 60 oy muddatga – 29% Boshlang'ich to'lov 40% dan yuqori bo'lganda: 36 oy muddatga – 27% 60 oy muddatga – 28%
	Kredit foizlariga boshqaruv qarori bilan o'zgartirish kiritilishi mumkin.
Taqdim etish shakli	Avtotransport vositasini ishlab chiqaruvchi korxona yoki uning rasmiy dilleri bank hisobraqamiga kredit mablag'larini to'liq ko'chirish orqali.
Boshlang'ich to'lov	Avtotransport vositasi qiymatining 25% dan kam bo'lmagan miqdorda;
Talab etiladigan xujjatlar	- shaxsni tasdiqlovchi xujjat (pasport, ID-karta, yashash uchun guvohnoma va x.k); - O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan avtotransport vositasini yetkazib berish shartnomasi;
Kredit ta'minoti	* Asosiy ta'minot – sotib olinadigan avtotransport vositasi. * Ushbu sotib olinadigan avtotransport vositasi ta'minot sifatida kredit miqdorining 125% dan kam bo'lmagan qiymatda qabul qilinadi; * Kredit bo'yicha majburiyatlarni vaqtincha ta'minlash (asosiy ta'minotning garov shartnomasining notarial yoki

	bank tomonidan mustaqil ravishda rasmiylashtirilguniga qadar) – sug’urta tashkilotining kredit va foizlar qaytmaslik xavfini sug’urta qilish polisi. Bankka aloqador bo’lgan shaxslarga ajratiladigan kreditlar bo’yicha 130% qiymatida garov qabul qilinadi.
Kredit qaytarish tartibi	Kredit va hisoblangan foizlarni to'lash kredit shartnomasida belgilangan tartibda va shartlarda annuitet yoki differentsial to'lov usulida amalga oshiriladi.
Qo'shimcha shartlar	* Kredit olishni istagan qarz oluvchi, kreditni olish uchun ariza berganida, oxirgi ish joyida kamida 6 (olti) oy davomida uzluksiz ishlagan bo'lishi; * Qarz oluvchining o'rtacha oylik sof daromadining 50%i kredit bo'yicha eng yuqori oylik to'lov hamda mavjud kreditlar/qarzlar bo'yicha o'rtacha oylik to'lov miqdorini qoplash uchun etarli bo'lishi; * Ijobiy kredit tarixiga ega bo'lishi;